

“HALOL TURIZM; ISLOMIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI”**Olimjonova Sehriyo Muzaffar qizi***Namangan davlat universiteti Tel;+998935636886*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada halol turizm tushunchasi, uning tamoyillari va global sayyohlik bozoridagi o'рни yoritilgan. Islomiy turizm - musulmon sayyohlar uchun diniy e'tiqodga mos, qulay va xavfsiz xizmatlar majmuasini anglatadi. Tadqiqotda O'zbekiston sharoitida halol turizmning hozirgi holati, mavjud infratuzilma, xalqaro tajriba bilan solishtirilib tahlil qilingan. Shuningdek, musulmon sayyohlarga mo'ljallangan xizmatlar halol ovqatlanish, ibodat uchun qulayliklar, genderga moslashtirilgan xizmat turlari ko'rib chiqilib, mamlakatda islomiy turizmni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlari: *Halol turizm, islomiy turizm, musulmon sayyoh, halol mehmonxona, barqaror turizm, O'zbekiston turizmi, halal sertifikat, genderga mos xizmatlar.*

KIRISH

So'nggi yillarda global sayyohlik sohasida halol (islomiy) turizm yo'nalishi jadal rivojlanib bormoqda.

Dunyoda 1,9 milliarddan ortiq musulmon aholisi mavjud bo'lib, bu segmentdagi sayyohlar ehtiyojlariga mos xizmatlar ko'rsatish nafaqat madaniy va diniy ehtiyoj, balki iqtisodiy imkoniyat sifatida ham talqin etilmoqda. Xususan, CrescentRating va Mastercard tomonidan e'lon qilingan Global Muslim Travel Index (GMTI)¹ 2024 ma'lumotlariga ko'ra, musulmon sayyohlar bozorining hajmi 2023-yilga kelib 225 milliard AQSh dollariga yetgan va 2028-yilga borib bu raqam 300 milliard dollardan oshishi kutilmoqda.

Halol turizm konsepsiyasi o'z ichiga halol oziq-ovqat, ibodat uchun qulayliklar, genderga mos xizmatlar, shariatga zid bo'lmagan madaniy dasturlar va mehmonxonalarda spirtli ichimliklar iste'mol qilinmasligi kabi tamoyillarni oladi. Bu turdagi xizmatlar ko'rsatish musulmon sayyohlar oqimini jalb qilishda muhim omil hisoblanadi.

Ayniqsa, musulmon aholisi ko'p bo'lgan davlatlar – Malayziya, Indoneziya, Turkiya, BAA bu yo'nalishda salmoqli natijalarga erishgan. O'zbekiston ham islomiy qadriyatlar, boy tarixiy-madaniy merosi va ziyorat turizmi salohiyatiga ega mamlakat sifatida halol turizmni rivojlantirish bo'yicha keng imkoniyatlarga ega. Ammo mavjud infratuzilma, xizmatlar sifati, halol sertifikatlash tizimining yetarlicha shakllanmaganligi kabi omillar bu sohaning to'liq rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda.

Ushbu maqolada halol turizmning asosiy tamoyillari, xalqaro tajriba, O'zbekiston misolida mavjud sharoitlar tahlil qilinadi hamda mamlakatda islomiy turizmni barqaror rivojlantirish yo'llari taklif etiladi.

¹CrescentRating & Mastercard. (2024). Global Muslim Travel Index 2024. www.crescentrating.com

Adabiyotlar tahlili

Halol turizm sohasidagi ilmiy tadqiqotlar oxirgi o'n yillikda jahon miqyosida faol rivojlandi. Ushbu yo'nalish, asosan, musulmon sayyohlar ehtiyojlariga javob beruvchi xizmatlar tizimini o'rganishga qaratilgan. Turli manbalarda halol turizmga oid atamalar "Muslim-friendly tourism", "Halal tourism", "Islamic tourism" nomlari bilan ifodalanadi, ammo ularning mohiyati — shariatga zid bo'lmagan turizm xizmatlarini yaratish — yagona g'oyaga asoslanadi


Battour va Ismail (2016) tomonidan olib borilgan tadqiqotda halol turizmning asosiy komponentlari: halol ovqatlanish, ibodat qilish uchun qulayliklar, genderga ajratilgan xizmatlar, shariatga muvofiq madaniy dasturlar kabi jihatlar tizimli tahlil qilingan. Mualliflar halol turizm faqat musulmonlar uchun emas, balki madaniy sezuvchanlikni qadrllovchi boshqa sayyohlar uchun ham jozibador bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi.² CrescentRating va Mastercard (2023–2024) tomonidan chop etilgan Global Muslim Travel Index (GMTI) reytingi dunyo bo'yicha musulmon sayyohlar uchun eng qulay mamlakatlar reytingini taqdim etadi. Bu reytingda xizmatlar, xavfsizlik, madaniy muvofiqlik va marketing salohiyati asosiy mezon sifatida olinadi. Unga ko'ra, 2023-yilda Malayziya, Indoneziya va Turkiya yetakchi o'rinlarni egallagan. O'zbekiston esa hali reytingda yuqori pog'onalarda emas, ammo salohiyati yuqori baholangan.

Mahalliy manbalardan Turizm va madaniy meros vazirligi va O'zbekiston Islom sivilizatsiyasi markazi tomonidan e'lon qilingan tahliliy hisobotlarda halol turizmning rivojlanish istiqbollari va mavjud to'siqlar haqida fikr yuritilgan. 2022–2023 yillardagi statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonga tashrif buyurgan sayyohlarning 35–40 foizi diniy maqsadlarda ziyorat qilgan. Biroq, mehmonxona va restoranlarning ko'pchiligida halol sertifikat mavjud emasligi aytilgan. Shuningdek, Abdullaeva D. (2022) tomonidan olib borilgan ilmiy maqolada O'zbekistonda halol turizm infratuzilmasining rivojlanish sur'atlari, ularni to'xtatib turgan omillar va huquqiy me'yorlar chuqur o'rganilgan. U halol xizmat ko'rsatish standartlarini joriy etish zarurati va mutaxassislar tayyorlash bo'yicha takliflar bildirgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda halol turizmni rivojlantirishning asosiy imkoniyatlarini aniqlash, mavjud muammolarni tahlil qilish va O'zbekiston sharoitida halol turizm infratuzilmasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish maqsad qilingan. Tadqiqot quyidagi metodlar olib borildi: tadqiqotda deskriptiv-analitik yondashuv asosida ishlanib, mavjud holat o'rganildi va unga nisbatan ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi. Shuningdek, taqqoslovchi tahlil metodi yordamida O'zbekistonning halol turizm sohasi Malayziya, Turkiya va Indoneziya tajribalari bilan solishtirildi.

² <https://doi.org/10.1016/j.tmp.2015.12.008>

1. Musulmon sayyohlar oqimi va halol turizm bozorining o'sish sur'ati³

2023–2028 yillar oralig'ida musulmon sayyohlar soni 44% ga oshishi kutilmoqda. Bu esa halol xizmatlarga bo'lgan talab ortishini anglatadi.

2. O'zbekiston va boshqa yetakchi davlatlar o'rtasida Halol turizm infratuzilmasi taqqoslanishi.

Davlat	Halol sertifikatli mehmonxonalar	Halol restoranlar	Namozxonalar mavjudligi	Halol transport xizmati
Malayziya	700+	1500+	Har bir zonada mavjud	Mavjud
Turkiya	500+	1200+	Ko'p	Mavjud
O'zbekiston	60	130	Cheklangan	Kam rivojlangan

O'zbekistonda halol turizm uchun zarur infratuzilma mavjud, biroq yetarli emas. Bu xizmatlarni kengaytirish orqali musulmon sayyohlarni ko'proq jalb qilish mumkin

2.Jadval

Sayyohlar ehtiyojlari asosida xizmatlar tahlili (so'rovnoma natijalari asosida)

Xizmat turi	Juda muhim" deb baholaganlar (%)
Halol oziq-ovqat	91%
Namoz o'qish joyi	85%
Spirтли ichimliklarsiz zona	73%
Genderga mos suzish hovuzi	62%

³CrescentRating & Mastercard. (2024). Global Muslim Travel Index 2024. www.crescentrating.com

Halol sertifikatli mehmonxona	88%
-------------------------------	-----

Sayyohlar uchun halol oziq-ovqat va ibodat qulayliklari eng ustuvor xizmatlardir. Bu xizmatlarni kengaytirish strategik yoʻnalish boʻlishi kerak.

Xulosa

Halol turizm bugungi kunda jahon bozorida tez surʼatlarda rivojlanayotgan sohalardan biridir. Musulmon sayyohlar sonining koʻpayishi va ularning halol xizmatlarga boʻlgan ehtiyoji yildan-yilga ortib bormoqda. Statistika va tahlillarga asoslanib aytish mumkinki, bu yoʻnalishda katta iqtisodiy imkoniyatlar mavjud. Oʻzbekiston halol turizm uchun qulay mamlakatlardan biri hisoblanadi. Chunki bu yerda boy tarixiy-islamiy meros, qadimiy ziyorat maskanlari va mehmondoʻst xalq mavjud. Biroq, mavjud imkoniyatlar toʻliq ishga solinmagan. Xizmat koʻrsatish sifati, halol sertifikat tizimi va marketing yetarli darajada emas. Soʻrov va tahlil natijalari shuni koʻrsatdiki, musulmon sayyohlar halol ovqat, namoz oʻqish joylari, va shariatga mos xizmatlarni ustuvor deb bilishadi. Oʻzbekiston bu ehtiyojlarga javob bera olsa, sayyohlar sonini va turizm daromadini oshirishi mumkin.

Xususan taklilar; halol xizmatlarni rasmiy ravishda sertifikatlash, xizmat koʻrsatuvchi xodimlarni oʻrgatish, xalqaro reklama va brend yaratish.

Xulosa qilib aytganda, agar Oʻzbekiston halol turizmni rivojlantirishga jiddiy eʼtibor bersa, bu soha nafaqat turizm daromadini, balki xalqaro obroʻ va madaniy aloqalarni ham mustahkamlashi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. CrescentRating & Mastercard. (2024). Global Muslim Travel Index (GMTI) 2024. Retrieved from: <https://www.crescentrating.com/reports/global-muslim-travel-index-2022>
2. Kamarulzaman, N. H., & Md Nor, N. (2020). Comparative study of halal tourism practices in Malaysia and Turkey. *International Journal of Tourism Research*, 22(5), 635–648. <https://doi.org/10.1002/jtr.2369>
3. Zamani-Farahani, H., & Henderson, J. C. (2010). Islamic tourism and managing tourism development in Islamic societies: The cases of Iran and Saudi Arabia. *International Journal of Tourism Research*, 12(1), 79–89.
4. Battour, M., Battor, M., & Bhatti, M. A. (2014). Islamic attributes of destination: Construct development and measurement validation, and their impact on tourist satisfaction. *International Journal of Tourism Research*, 16(6), 556–564.
5. Uzbekistan Ministry of Ecology, Environmental Protection and Climate Change, Tourism Committee. (2023). *Tourism Statistics of Uzbekistan*. Retrieved from: <https://uzbektourism.uz>
6. Halal Accreditation Agency of Turkey (HAK). (2023). *Annual Report*. Retrieved from: <https://www.hak.gov.tr>

7. Al-Hamarneh, A., & Steiner, C. (2004). Islamic tourism: Rethinking the strategies of tourism development in the Arab world after September 11, 2001. *Comparative Studies of South Asia, Africa and the Middle East*, 24(1), 173–182.

8. World Tourism Organization (UNWTO). (2023). *Tourism and the Islamic World: Halal Tourism Market Trends and Outlook*.

9. Diyanet İşleri Başkanlığı (Presidency of Religious Affairs, Turkey). (2023). Halal tourism certification and faith-based travel trends. <https://www.diyamet.gov.tr>

10. Sharipov, N. (2021). O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning ilmiy asoslari. *Turizm va madaniy meros jurnali*, 3(1), 45–53.